O‘ZBEK TILIDA INTERTEKSTUALLIK TADQIQI

Mahfuzaxon Farhodjon qizi XOMIDOVA
doktorant
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
mahfuzaxon.xomidova@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-3559-0448

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilshunosligida intertekstuallik hodisasining tadqiq etilishi va bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Intertekstuallik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi turli olimlarning qarashlari asosida yoritilib, matnlararo aloqaning lingvistik, pragmatik hamda lingvokulturologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, intertekstuallik tushunchasining ilmiy talqini, uning matn tahlilidagi o‘rni hamda intertekstual birliklarning vazifasi turli tadqiqotchilar fikrlari bilan solishtirib tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida intertekstuallikni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar, ularning metodologik yondashuvlari hamda ilmiy xulosalari umumlashtirilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunoslik, intertekstuallik, antroposentrizm, badiiy matn, allyuziya.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Махфузахон Фарходжон кизи ХОМИДОВА
докторант
Университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
mahfuzaxon.xomidova@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-3559-0448

Аннотация

В статье анализируется исследование феномена интертекстуальности в узбекском языкознании, а также рассматриваются научные работы, посвящённые данной проблеме. Формирование и развитие теории интертекстуальности освещается на основе взглядов различных учёных, при этом рассматриваются лингвистические, прагматические и лингвокультурологические аспекты межтекстовых связей. В частности, научная интерпретация понятия интертекстуальности, её роль в анализе текста, а также функции интертекстуальных единиц анализируются в сопоставительном аспекте на основе мнений различных исследователей. Кроме того, в статье обобщаются научные работы, посвящённые изучению интертекстуальности в узбекском языкознании, их методологические подходы и научные выводы. Результаты исследования способствуют выявлению значения интертекстуальности в анализе художественного текста.

Ключевые слова: узбекское языкознание, литературоведение, интертекстуальность, антропоцентризм, художественный текст, аллюзия.

O‘zbek tilshunosligida intertekstuallik masalasi so‘nggi yillarda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tibor qozonmoqda. Intertekstuallik badiiy , ilmiy, publitsistik uslubdagi matnlarning boshqa matnlar bilan mazmuniy, semantik va stilistik jihatdan o‘zaro aloqadorligini ifodalovchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Bu tushuncha matnning avvalgi matnlar, madaniy kontekst va muallif tafakkuri bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Intertekstuallik tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunoslik va tilshunoslikda muhim ilmiy kategoriyalardan biri sifatida shakllana boshladi. Mazkur tushuncha matnlarning o‘zaro bog‘liqligi, bir matnda boshqa matnlarning izlari yoki ishoralarining mavjudligi, shuningdek, matnning turli madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlar bilan aloqadorligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, har qanday matn o‘zidan oldingi matnlar, an’analar va madaniy tajribalar bilan muayyan darajada bog‘langan holda yuzaga keladi. Shu sababli intertekstuallik matnning mazmuniy qatlamlarini ochish, undagi yashirin ma’nolarni aniqlash hamda muallifning badiiy niyatini chuqurroq anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Intertekstuallik matn kategoriyasi sifatida dunyo olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan bo‘lib, uning nazariy asoslari adabiyotshunoslik, matn lingvistikasi, semiotika va pragmalingvistika kabi yo‘nalishlar doirasida ishlab chiqilgan. Intertekstuallik muammolari hamda unga yondosh hodisalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli jihatlarda o‘rganilgan. Jumladan, M. Riffater, J. Jenett, M. Gresset, Ch. Grivel kabi tadqiqotchilar intertekstuallikning nazariy asoslari, uning matn strukturasidagi o‘rni va badiiy asar tahlilidagi ahamiyatini yoritgan bo‘lsalar, I.P. Smirnov, A.K. Jolkovskiy, I.P. Ilin, V. Arnold, E.I. Kobzar, V.E. Xalizev, N.A. Fateeva kabi rus olimlari ushbu hodisaning semantik, stilistik hamda kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilganlar. O‘zbek tilshunosligida ham intertekstuallik masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Xususan, N. Mahmudov, M. Xolbekov, M. Yo‘ldashev, D. Xudoyberganova, D. Andaniyozova, D. Ashurova, A. Dusabayeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida matnlararo aloqadorlik, badiiy

matndagi intertekstual birliklar hamda ularning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari muayyan darajada o‘rganilgan. Bu tadqiqotlar o‘zbek tilida intertekstuallik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga muhim hissa qo‘shmoqda.

Intertekstuallikning nazariy jihatdan O‘zbekistonlik olimlar tomonidan keng o‘rganilishi asosan XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, matn lingvistikasi, pragmalingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarining rivojlanishi intertekstuallik hodisasiga bo‘lgan ilmiy qiziqishni yanada kuchaytirdi. Matn hodisasiga turli nuqtayi nazardan yondashuv, badiiy asarlarning matniy tahliliga e’tiborning ortishi, shuningdek, adabiy matnlarni postmodernistik talqin qilish tamoyillarining shakllanishi intertekstuallikni alohida ilmiy kategoriya sifatida o‘rganishga zamin yaratdi. Natijada badiiy matnlar tarkibidagi iqtibos, alluziya, reminissensiya, stilistik ishora kabi intertekstual birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash masalasi tilshunoslikda muhim tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Shuningdek, matnning ko‘p qatlamli tuzilishini o‘rganish, muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni aniqlash ham intertekstuallik hodisasining chuqurroq tahlil qilinishiga imkon berdi. Bunda badiiy matnlarning boshqa matnlar bilan semantik, madaniy va stilistik aloqadorligi, milliy madaniyat va tarixiy xotira bilan bog‘liq jihatlari ham ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. O‘zbek tilidagi va o‘zbek olimlari tomonidan intertekstuallik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarni umumiylashtirgan holda ularning mazmuni, tadqiq yo‘nalishi hamda nazariy yondashuviga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O‘zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlarda intertekstuallik muammosi.
2. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda intertekstuallik muammosi.
3. Tarjimashunoslikka oid tadqiqotlarda intertekstuallik muammosi.
4. Qiyosiy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda intertekstuallik muammosi.

O‘zbek tilshunoslaridan N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, M. Yo‘ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlarida intertekstuallik hodisasi matn lingvistikasi va lingvopoetika doirasida muayyan darajada yoritilgan. Ushbu olimlar ilmiy ishlarida

intertekstuallikning mohiyati, uning nazariy ta’rifi, turlari hamda matn kategoriyasi sifatidagi o‘rni o‘zbek tilidagi badiiy matnlar misolida tahlil qilingan. Xususan, intertekstual birliklarning matn mazmunini boyitishdagi roli, muallifning badiiy maqsadini ifodalashdagi ahamiyati hamda o‘quvchi tomonidan matnni qabul qilish jarayonidagi funksional xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bag‘ishlangan ishlarida intertekstuallik kategoriyasi ham alohida tadqiq etilgan. Olim intertekstuallikni badiiy matnning tahlil qilish tamoyilllaridan biri sifatida baholaydi. Uning lingvopoetikadagi o‘rnini o‘zbek tilida yaratilgan badiiy matnlardan olingan misollar yordamida dalillaydi [Yuldashev M., 2010.]. Muallif turli badiiy matnlardan olingan misollar yordamida uning mohiyatini belgilaydi.

D.Xudoyberganovaning tadqiqoti matnning antroposentrik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda matnning intertekstuallik kategoriyasi va uning lingvokulturologik xususiyatlari, shuningdek, presedent matnlar bilan aloqasiga munosabat bildirgan [Xudoyberganova D., 2010]. Olima intertekstuallikni badiiy matnning lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi presedent birliklar bilan birgalikda tadqiq qiladi: presedentlik intertekstuallikning namoyon bo‘lish shakllaridan biri bo‘lib, til egalarining asosiy qatlamiga yaxshi tanish ekanligi, nutqda qayta-qayta qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Bu o‘rinda intertekstual aloqalar presedent matnlarni ham o‘z ichiga olishini va ular matnning lingvomadaniy jihatini tashkil qilishini to‘g‘ri ta’kidlaydi.

Intertekstual aloqning bir turini tashkil qiladigan allyuziya hodisasi ham o‘zbek tilshunosligida keng o‘rganilgan. D.Andaniyozovaning onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotida ham intertekstuallikning bir turi bo‘lgan allyuziyaga munosabat bildirilgan. Allyuziyalar badiiy matnda lingvopoetik vosita sifatida tadqiqi qilingan. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarda intertekstuallikning matn kategoriyasi sifatidagi o‘rni, uning tarkibiga kiruvchi allyuziya, presedentlik hodisalari alohida ajralib turadi. Keyingi yillarda ham ayrim kichik tadqiqotlarda

uning badiiy matndagi o‘rni, muayyan ijodkor asarlaridagi intertekstuallik keng o‘rganilmoqda.

M.Xolbekov, S.Meli kabi olimlar esa uni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan. M. Xolbekov intertekstuallik masalasiga qiyosiy adabiyotshunoslik va matnlararo aloqalar nuqtayi nazaridan yondashadi. Olimning fikricha, badiiy matn alohida, mutlaqo mustaqil hodisa emas, balki avval yaratilgan matnlar, adabiy an’analar va madaniy tajriba bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois badiiy asarni to‘liq anglash uchun undagi matnlararo aloqalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotshunos olim S. Meli Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarini intertekstuallik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Olim ““Nazm ul-javohir”: intermatnlik va ma’nolar muloqoti” nomli maqolasida shunday yozadi: “butun olam matndir. Uning har bir chizig‘i, ishorasi, voqeasi, hodisasi, odamlar, munosabatlar, o‘ylar, fikrlar, orzular – barcha-barchasi – Matndir” [Meli S., 2020; 15]. Olim bevosita bu maqolasida Navoiy ruboiylarining asl manbai bilan qiyoslab, ularni yaxshi anglash uchun intermatniy tahlilga murojaat qilish muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, U. Eko ilmiy muomalaga “intermatniy dialog” termini haqida ham to‘xtalib o‘tib, Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir”dagi ruboiylarini xuddi shu usul orqali tekshiradi.

Yana bir navoiyshunos olim O. Davlatov Alisher Navoiy she’riyatidagi Qur’on oyatlari va hadislarning tahlilini amalga oshirgan. Tadqiqotda mohiyatan intertekstualikka mos keluvchi “iqtibos”, “talmeh” kabi badiiy san’atlar xususida fikrlar mavjud va Navoiyning she’riy merosida uchraydigan Qur’on oyatlari hamda hadislarning manbaini aniqlash va turkiy misralarga singdirish yo‘llari aniqlangan. Bizningcha, bu ham intertekstuallik asosidagi tahlilning ayni o‘zidir. Chunki intertekstualikka doir tadqiqotlarda unga asos bo‘luvchi eng birinchi manba sifatida muqaddas kitoblar keltiriladi. Olim ham Alisher Navoiy she’riyatini shu jihatdan tadqiq qilgan.

Shuningdek, adabiyotshunos olim D.Quronovning adabiyotshunoslikka oid lug‘atida intermatnlik va uning tarkibiga kiruvchi birliklarning ta’rifi keltirilgan.

O‘zbek ilmiy doirasida o‘zbek tilidan boshqa tillarda tadqiqot olib boruvchilar o‘rtasida ham intertekstuallik masalasi ancha keng yoyilgan. Jumladan, qiyosiy tilshunoslik, matn tilshunosligi va diskursiv tahlil bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar intertekstuallikning turli aspektlarini tahlilga tortishgan.

Intertekstuallikning nazariy tadqiqi olima D.Ashurovaning ishlarida ham ko‘zga tashlanadi. Uning “Matn tilshunosligi” qo‘llanmasining 4 bobi matn kategoriyalari haqida bo‘lib, unda intertekstuallik alohida matn kategoriyasi ekanligi ajratiladi. U intertekstuallik haqida Chernyavskayaning quyidagi ta’rifini beradi: intertekstuallik ayrim matnlarning boshqa matnlar bilan bog‘lanish xususiyati sifatida ta’riflanadi. Bu bog‘lanish tematik, semantik yoki struktural darajada namoyon bo‘lishi mumkin” [Ashurova D., 2012; 52]. Darhaqiqat, muayyan matnlar o‘zidan oldin yaratilgan matnlar bilan mavzuviy ma’nosi yoki tuzilishi jihatdan o‘xshash bo‘lishi yoki unga shu tarzda kiritilishi mumkin. Bu, ayniqsa, badiiy matnlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Olima, shuningdek, intertekstuallikni matnning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida baholab, uning ilmiy, badiiy, publitsistik uslublarda qo‘llanishi va o‘ziga xosliklari haqida ham ma’lumot beradi. Olimaga ko‘ra, intertekstual aloqalarni o‘rganish matnning chuqur qatlamlariga kirish imkonini beradi va muallifning niyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu ham matnning antroposentrik tadqiqiga bir yondashuvdir. Chunki ayni shu paradigmada matn bevosita uning yaratuvchisi va qabul qiluvchisi bilan birgalikda tadqiq qilinadi. Shuningdek, D. Ashurova intertekstuallikning tilshunoslik jihatdan tadqiqida uning quyidagi xususiyatini ajratadi: “Lingvistik nuqtayi nazardan intertekstuallik faqat boshqa matnga ochiq murojaat mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Bunda muallif maxsus shakllar orqali ikki matn orasidagi munosabatni ongli ravishda ifodalaydi” [Ashurova D., 2012; 53]. Ya’ni bunday holatda intrertekst aniq ko‘rinadi. Havola, epigraf yoki boshqa shaklda intertekstuallik hosil bo‘ladi.

Shuningdek, olima badiiy va publitsistik matnlarda intertekstuallik muhim, ammo ixtiyoriy kategoriya ekanligini, biroq ilmiy matnlarda u universal prinsip

bo‘lib, majburiy bo‘lishini ham ta’kidlaydi. Bu yerda ilmiy uslubning o‘ziga xos jihatlariga ishora mavjud. Ilmiy matnlarni iqtiboslarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

A. Dusabayeva esa intertekstuallikning bir turi hisoblanagan allyuziyalarning ingliz tilidagi lingvokognitiv, lingvomadaniy tadqiqini amalga oshirgan. Uning tadqiqotida 3-bob allyuziya va intertekstuallik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, badiiy matndagi allyuziyalarning intertekstual aloqalari, presedentlik kognitiv jihatdan tadqiq qilingan hamda intertekstuallikning kognitiv jihatlari haqida to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan. Bu tadqiqotning yana bir muhim jihati, olima intertekstuallikning bir turi hisoblangan allyuziyaning antroposentrik paradigma doirasida, ya’ni uni kognitiv semantik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganganligidir. Allyuziya intertekstuallikning verbal shaklda namoyon bo‘ladigan shakli ekanligi qayd etilgan, intertekstuallikning freym-strukturalari aniqlangan.

N.Normurodovaning tadqiqotida antroposentrizmning tilshunoslikdagi o‘rni masalasi keng yoritilgan. Olima o‘z tadqiqotida bevosita intertekstualikka aloqador bo‘lgan sentensiyani muallif diskursiv shaxsining til markerlaridan biri sifatida baholagan. Shuningdek, intertekstuallikning yuzaga chiqish shakllaridan biri sanalgan epigrafni badiiy matnda muallif ongidagi olamning konseptual manzarasining shakllanishidagi rolini aniqlangan. N.Normurodova badiiy dikusrning darajaviy modelini taklif qilib, intertekstuallikni uning kognitiv darajasiga kiritadi[Normurodova N., 2020; 77].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, intertekstuallik hodisasi o‘zbek olimlari tomonidan o’zbek, ingliz, rus va boshqa tillar misolida lingvistik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan. Tilshunoslikda lingvopoetik, lingvomadaniy, kognitiv, semantik jihatlari badiiy matnlar asosida o’rganilgan. So‘nggi yillarda intertekstuallikni o‘rganish doirasi yanada kengayib, uning siyosiy, ilmiy va media diskursdagi namoyon bo‘lish shakllari ham alohida ilmiy e’tibor markaziga aylangan. Xususan, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida intertekstual birliklarning qo‘llanishi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda matnlararo ishoralarning paydo bo‘lishi,

shuningdek, global madaniy jarayonlar bilan bog‘liq intertekstual aloqalar yangi tadqiqot yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois intertekstuallik fenomenining zamonaviy kommunikativ muhitdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, uning turli diskurslarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa mazkur sohada yangi nazariy yondashuvlar va kompleks tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andaniyozova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
2. Ashurova D.U. Text Linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 200 c.
3. Davlatov O. Alisher Navoiy she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislar. – Toshkent, 2017.
4. Meli, S. “Nazm ul-javohir”: intermatnlik va ma’nolar muloqoti //O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020. – №1. – B.15.
5. Normurodova N. Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning lisoniy voqelanishi. DSc avtoreferati. – Toshkent, 2020.
6. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent, 2010.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent, 2008.